

to'g'ridan-to'g'ri ko'prik hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "... islohotlarimizning ostonasi bo'lgan har bir mahallaga Yangi O'zbekiston nafasini olib kirish, eng avvalo, "mahalla yettiligi"ning yagona jamoa bo'lib ishlashiga bevosita bog'liq" [2]. Bu tizimning asosiy afzalligi shundaki, u ijtimoiy ko'maklashish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy resurslarni taqsimlash jarayonlarini bevosita xalqning ko'z o'ngida, insoniy omillarni minimallashtirgan holda amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Respublikaning 2025-yilgi kriminogen vaziyati va sud statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, sodir etilgan umumiy korrupsiyaviy jinoyatlarning qariyb 75 foizi aynan quyi bo'g'inga – tuman va bevosita mahalla darajasidagi maishiy korrupsiya shakllariga to'g'ri kelgan [3]. Maishiy korrupsiyaning bunday yuqori ko'rsatkichi fuqarolarning kundalik hayotiy ehtiyojlari: moddiy yordam, subsidiya, yer, kredit, bandlik va ijtimoiy xizmatlar bevosita mahalliy mansabdor shaxslarning qarorlariga bog'liq ekanligi hamda jarayonlarda inson omilining yuqoriligi bilan izohlanadi. Ushbu tizimli muammoni ildizi bilan bartaraf etish va mahalla hududida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash maqsadida joriy etilgan "mahalla yettiligi" instituti bugungi kunda maishiy tamagirikka qarshi kompleks preventiv qalqon vazifasini bajarmoqda. Bunda "yettilik" a'zolarining har biri aniq, qonunan mustahkamlangan funksional vazifalarga ega bo'lib, ularning tarqoq emas, balki o'zaro integratsiyalashgan holda harakat qilishi tizimli va ko'p bosqichli jamoatchilik nazoratini ta'minlaydi.

Ushbu aksilkorrupsion zanjirning markaziy bo'g'ini sifatida mahalla raisi umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini muvofiqlashtiradi. Shuningdek, u mahalla byudjetining shakllanishi va sarflanishi ustidan nazorat o'rnatib, qarorlar qabul qilinishida kollegiallik va oshkoralik tamoyillarini ta'minlaydi. Iqtisodiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasidagi eng yirik xavflar jamlangan yo'nalishga mas'ul bo'lgan hokim yordamchisi esa imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratish va moddiy yordam ko'rsatish jarayonlarida shaffoflikni kafolatlaydi. Hokim yordamchisi arizalarni ko'rib chiqishda qarindosh-urug'chilik va tanish-bilishchilik omillarini istisno qilish uchun aholini toifalash tizimini elektronlashtiradi va mablag'larning faqatgina haqiqiy ehtiyojmand tadbirkorlarga yetib borishini ta'minlaydi.

Mahalla ichidagi ijtimoiy ro'yxatlarni shakllantirish va inson omili tufayli yuzaga keladigan suiiste'molchiliklarning oldini olishda xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi muhim rol o'ynaydi. Ular tegishli "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga fuqarolarni kiritish, ularga mehnat qurollari yoki o'qish pullarini qoplab berish uchun tavsiyanomalar ajratishda ochiqlikni ta'minlaydi; har bir nomzod "yettilik"ning umumiy muhokamasidan o'tkazilgani bois, shaxsiy manfaatdorlik evaziga ro'yxatlarni soxtalashtirish xavfi bartaraf etiladi. Shu bilan birga, mahallada ijtimoiy adolatni ta'minlash, yolg'iz keksalar va nogironligi bor shaxslarga nafaqa hamda rehabilitatsiya vositalarini tarqatishda ijtimoiy xodim vaziyatni bevosita joyiga chiqib o'rganadi va korrupsiogen vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan "yashirin byurokratiya"ni cheklaydi.

Tizimning huquqiy va moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektori va soliq inspektorining o'zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Profilaktika inspektori mahallada huquqbuzarliklarning, shu jumladan mahalliy amaldorlar tomonidan sodir etiladigan vakolatni suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish va korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini yaratish bo'yicha tezkor-profilaktik choralarni ko'radi. Soliq inspektori esa mahalladagi tadbirkorlik subyektlarini xufiyona iqtisodiyotdan olib chiqish, noqonuniy pul aylanmalari va soliqdan qochish maqsadida beriladigan pora holatlarini jilovlash bilan shug'ullanadi. Qisqa qilib aytganda, "mahalla yettiligi"ning bunday integratsiyalashgan modeli bir tomonlama qaror qabul qilish tizimiga chek qo'yadi; har bir qaror, ajratilayotgan har bir so'm mablag' yetti xil soha vakilining nazorati va raqamli

tizimlar elagidan o'tgan holda amalga oshiriladi, bu esa 75 foizlik maishiy korrupsiya ko'rsatkichini keskin kamaytirishning eng samarali institutsional yechimi hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, mahalla darajasidagi eng yuqori korrupsiyaviy xavflar aynan ijtimoiy nafaqalar va imtiyozli moliyaviy mablag'larni taqsimlash jarayonlariga to'g'ri keladi [4]. Xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi tomonidan ehtiyojmand qatlamlarning ro'yxatlari – "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ni shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanilishi va "yettilik"ning birgalikdagi tasdig'i mablag'larning manzilli yetib borishini kafolatlaydi va mahalliy mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu bilan birga, mahalla ichidagi huquqiy madaniyatni yuksaltirish va aholida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik hissini shakllantirish ushbu tizimning ustuvor maqsadlaridan biridir. Profilaktika inspektori va ijtimoiy xodimning oilalar bilan doimiy muloqoti fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunining 16-moddasida davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari aholining huquqiy omilkorligini oshirish orqali korrupsiyaning oldini olishi belgilab qo'yilgan [5]. "Yettilik" tomonidan muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan huquqiy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari, interfaol ochiq muloqotlar hamda empirik sotsiologik so'rovnomalar hududning o'ziga xos ijtimoiy diagnostikasi vazifasini o'taydi. Mazkur profilaktik-ma'rifiy mexanizmlar fuqarolarning nafaqat o'z subyektiv huquqlari va qonuniy manfaatlarini chuqur anglashiga, balki jamiyatda korrupsiogen omillarni identifikatsiya qilish layoqatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlar majmui mahalliy darajada har qanday tamagirlik, byurokratik to'siqlar yoki adolatsizlik holatlari yuzasidan vakolatli organlarga xabar berish madaniyati shakllanishiga olib keladi. Natijada, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishda passiv kuzatuvchanlikdan faol fuqarolik pozitsiyasiga va ta'sirchan jamoatchilik nazoratiga o'tish jarayoni tezlashadi hamda qonun ustuvorligi tamoyilining quyi tizimda to'laqonli ishlashi ta'minlanadi.

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish institutsional islohotlarning eng samarali vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, quyi bo'g'in boshqaruv tizimida "Digital Mahalla" konsepsiyasining izchil amaliyotga tatbiq etilishi "mahalla yettiligi" faoliyati shaffofligini ta'minlash va tizimdagi korrupsiogen omillarga barham berishning bosh mezoniga aylandi. Mahalla darajasida aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar, manzilli moddiy ko'mak va iqtisodiy resurslarni taqsimlash jarayonlarining "Onlayn mahalla" va "E-ijtimoiy profilaktika" kabi ixtisoslashtirilgan raqamli platformalarga integratsiya qilinishi ma'muriy tartib-taomillarni maksimal darajada algoritmlashtirdi. Bu, o'z navbatida, mansabdor shaxslarning o'z xohishiga ko'ra qaror qabul qilish vakolatlarini cheklab, subyektlar o'rtasidagi bevosita aloqani, ya'ni "inson omili"ni hamda an'anaviy byurokratik to'siqlarni keskin kamaytirishga olib keldi.

Xalqaro tajriba va davlat boshqaruvi nazariyasi shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasida mahalliy boshqaruv organlarining raqamli shaffofligi va hisobdorligi eng yuqori samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) namoyish etadi. Taniqli tadqiqotchi R. Klitgardning korrupsiya modeliga ko'ra, ma'muriy monopoliya va qaror qabul qilishdagi erkinlik korrupsiya darajasini oshiradi, shaffoflik va hisobdorlik esa uni minimallashtiradi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy boshqaruvda raqamli nazorat tizimining o'rnatilishi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt monitoring qilish va ularni tizimli bartaraf etishning eng maqbul yechimi ekanligi isbotlangan [6].

Ushbu kontekstda, "mahalla yettiligi" tizimining iqtisodiy blokini tashkil etuvchi subyektlar – hokim yordamchisi va soliq inspektorining kichik va o'rta biznes vakillari bilan o'zaro hamkorlik

jarayonlarining tizimli ravishda raqamli nazoratga olinishi alohida aksiologik ahamiyat kasb etadi. Mazkur subyektlar faoliyatining raqamlashtirilishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlar va noqonuniy tekshirishlarni cheklovchi avtomatik filtr vazifasini o'taydi. Ma'lumotlarning markazlashtirilgan elektron bazalarda aks ettirilishi xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishga, tadbirkorlik faoliyatini legallashtirishga va pirovardida mahalliy darajada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish uchun mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy zamin hozirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, "mahalla yettiligi" instituti jamiyatning eng quyi bo'g'inida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, ularning determinantlarini bartaraf etish va aholi o'rtasida antikorrupsion immunitetni shakllantirishda strategik institutsional qalqon vazifasini bajarmoqda. Ushbu tizimning joriy etilishi davlat boshqaruvini detsentralizatsiya qilish va jamoatchilik nazoratini bevosita fuqarolarga yaqinlashtirish imkonini berdi.

Biroq, mazkur institutning ijtimoiy-huquqiy potensialidan to'liq foydalanish va uning faoliyatida shaffoflikni ta'minlash bir qator ichki tashkiliy-huquqiy va raqamli mexanizmlarni modernizatsiya qilishni talab etadi. Mahalla darajasida shaffoflik, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligining qaror topishi davlatning korrupsiyadan xoli mamlakatga aylanishi yo'lidagi eng muhim institutsional poaydevordir.

Ilmiy va amaliy takliflar. "Mahalla yettiligi" tizimining aksilkorrupsion faoliyati samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. *Ichki korrupsiyaviy barqarorlikni (Komplayens-nazorat) joriy etish.* "Mahalla yettiligi" a'zolari uchun maxsus "Mahalla antikorrupsion komplayens kodeksi"ni ishlab chiqish va amaliyotga kiritish lozim. Kodeks doirasida "yettilik" a'zolarining manfaatlar to'qnashuvini, ayniqsa, moddiy yordam, subsidiyalar ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jarayonlarida majburiy deklaratsiya qilish tizimini yo'lga qo'yish.

2. *Natijadorlikni baholashning raqamli indikatorlarini (KPI) takomillashtirish.* "Yettilik" faoliyatini baholashda inson omilini butunlay istisno qiluvchi, avtomatlashtirilgan va aholining real qoniqish darajasini aks ettiruvchi "Mahalla raqamli reytingi" tizimini yaratish. KPI ko'rsatkichlari tarkibiga mahallada korrupsiyaviy omillarning kamayganligi, ijtimoiy dasturlarning shaffof taqsimlanishi va fuqarolarning tizimdan qoniqish indeksini sotsiologik so'rovlar va onlayn ovoz berish orqali asosiy mezon sifatida kiritish.

3. *Tizimli ravishda aksilkorrupsion kognitiv treninglarni tashkil etish.* Davlat xizmatini rivojlantirish hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentliklari hamkorligida "yettilik" a'zolari uchun muntazam ravishda "Korrupsiyadan xoli mahalla boshqaruvi" maxsus malaka oshirish kurslarini institutsionallashtirish. Treninglarda asosiy e'tiborni nafaqat nazariy bilimlarga, balki korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, psixologik barqarorlik va komplayens vositalari bilan ishlash bo'yicha amaliy keyslarga qaratish.

4. *Jamoatchilik nazorati va xabar berish madaniyatini raqamlashtirish.* Fuqarolar uchun mahalla darajasidagi tamagirlik yoki adolatsizlik holatlari haqida anonim va xavfsiz xabar berish imkonini beruvchi yagona «mahalla-nazorat» raqamli bot yoki platforma yaratish. Mazkur tizim orqali kelib tushgan murojaatlar bevosita yuqori turuvchi nazorat organlari – prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan monitoring qilinishini ta'minlash va bu orqali mahalliy darajadagi xufiyona kelishuvlarning oldini olish.

5. *Ijtimoiy xizmatlar va subsidiyalar ajratilishini to'liq audit qilish.* "Onlayn mahalla" platformasida blokcheyn texnologiyasini joriy etish orqali ijtimoiy yordam va subsidiya oluvchilar ro'yxati shakllanishini jamoatchilik uchun ochiq va o'zgartirib bo'lmaydigan formatga o'tkazish. Bu

tizim "mahalla yettiligi" tomonidan ro'yxatlarni sun'iy ravishda o'zgartirish yoki tanish-bilishchilik asosida mablag' ajratish imkoniyatini texnik jihatdan yo'qqa chiqaradi.

Ushbu takliflarning huquqiy va tashkiliy jihatdan hayotga tatbiq etilishi: mahalla darajasida byurokratik korrupsiya ulushini kamida 80–90% ga qisqartirishga; davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch ko'prigini mustahkamlashga; xalqaro reytinglarda O'zbekistonning mavqeyini sifat jihatdan yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 346 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Mahalla tizimini yanada takomillashtirish va joylarda ishlarni samarali tashkil etish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruza. 14.10.2025. <https://president.uz/uz>.
3. Mirziyoyev Sh.M. 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishidagi ma'ruza. <https://gov.uz/uz/news>.
4. Rustambayev M.H. O'zbekistonning Jinoyat kodeksiga sharhlar (Umumiy qism) to'ldirilgan va qayta ishlangan to'rtinchi nashr. – Toshkent: TDYUU, 2023. – 45-b.
5. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 3-modda.
6. Klitgaard R. Controlling Corruption. – University of California Press, 2021. – P. 112



JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA GENETIK (DNK) IDENTIFIKATSIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI



Abduraximov Muxtor Xodjiakbarovich

O'zbekiston Respublikasi IIV
Tashkiliy departamenti Yuridik
ta'minlash boshqarmasi, yuridik
fanlar bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Министерство внутренних дел
Республики Узбекистан,
доктор философии по
юридическим наукам (PhD),
доцент

Ministry of Internal Affairs of the
Republic of Uzbekistan, Doctor
of Philosophy in Legal Sciences
(PhD), Associate Professor

Annotatsiya. Maqolada genetik (DNK) identifikatsiyaning nazariy asoslari, kriminalistik identifikatsiya tizimidagi o'rni va jinoyatlarni tergov qilishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Genotiposkopiyaning shakllanishi, uning molekulyar genetika, populyatsion genetika, bioinformatika va matematik statistika bilan bog'liq ilmiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, Rapid DNA texnologiyasining huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi imkoniyatlari hamda genetik ma'lumotlardan foydalanishning huquqiy va bioetik jihatlarini ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari genetik identifikatsiyaning shaxsni aniqlash va jinoyatlarni fosh etishdagi yuqori ishonchli hamda samarali kriminalistik usul ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: genetik identifikatsiya, DNK, genotiposkopiya, kriminalistik identifikatsiya, molekulyar genetika, populyatsion genetika, bioinformatika, Rapid DNA, kriminalistika, sud ekspertizasi.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF GENETIC (DNA) IDENTIFICATION IN THE FIGHT AGAINST CRIME

Abstract. The article analyzes the theoretical foundations of genetic (DNA) identification, its role in the forensic identification system, and its significance in criminal investigation. The establishment of genotyping and its scientific foundations related to molecular genetics, population genetics, bioinformatics, and mathematical statistics are highlighted. The possibilities of Rapid DNA technology in the activities of law enforcement agencies, as well as the legal and bioethical aspects of using genetic information, are also considered. The research results demonstrate that genetic identification is a highly reliable and effective forensic method for identifying individuals and solving crimes.

Keywords: genetic identification, DNA, genotyping, forensic identification, molecular genetics, population genetics, bioinformatics, Rapid DNA, forensics, forensic examination.

Zamonaviy globallashuv sharoitida jinoyatchilikning transmilliy xususiyat kasb etishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi, aholi migratsiyasi ko'lamining kengayishi hamda jinoyat sodir etish mexanizmlarining tobora murakkablashib borishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga yangi talablarni qo'yimoqda. Ayniqsa, jinoyatlarni tezkor fosh etish, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash, dalillarni ishonchli baholash hamda aybsiz shaxslarni jinoiy ta'qibdan himoya qilishda zamonaviy fan-texnika yutuqlarini huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda inson genomi sohasida amalga oshirilgan fundamental tadqiqotlar natijasida kriminalistika fanida yangi ilmiy yo'nalish – genetik (DNK) identifikatsiya shakllandi. Hozirgi kunda DNK tahlili inson shaxsini aniqlashning eng yuqori darajadagi aniqlik va

ishonchlilikka ega bo'lgan usuli sifatida xalqaro miqyosda tan olingan. Ushbu texnologiya nafaqat jinoyatlarni fosh etish, balki bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish, tanib olinmagan murdalarni identifikatsiya qilish, qarindoshlik munosabatlarini belgilash, ommaviy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish hamda sud xatolarini aniqlash va tuzatishda ham keng qo'llanilmoqda.

Ayniqsa, genetik texnologiyalarning avtomatlashtirilishi, raqamlashtirilishi va bioinformatik platformalar bilan integratsiyalashuvi DNK identifikatsiyaning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. Natijada mazkur texnologiya zamonaviy kriminalistikaning eng istiqbolli va yuqori texnologiyali yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Kriminalistikaning fundamental nazariyalaridan biri kriminalistik identifikatsiya nazariyasi hisoblanadi. Uning mohiyati muayyan obyektning individual belgilari majmuasi asosida aynanligini belgilashdan iborat bo'lib, mazkur nazariya jinoyatlarni tergov qilish va isbotlash jarayonining metodologik asosini tashkil etadi.

"Identifikatsiya" atamasi lotincha "identifico" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "aynanlikni aniqlash" ma'nosini anglatadi [1]. Kriminalistik identifikatsiya nazariyasi esa jinoyat sodir etish jarayonida hosil bo'lgan moddiy izlar, ularning xususiyatlari va o'zaro bog'liqliklarini tadqiq etish orqali obyektlarning aynanligini aniqlash qonuniyatlarini o'rganuvchi ta'limot sifatida shakllangan [2; 26-27-b.].

Kriminalistik identifikatsiya nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri R.S. Belkin hisoblanadi. Olimning ta'kidlashicha, identifikatsiya muayyan obyektning individual xususiyatlari orqali uning aynanligini belgilashga qaratilgan bilish jarayoni bo'lib, jinoyatni ochish va isbotlash faoliyatining muhim nazariy hamda metodologik asosini tashkil etadi [3]. V.Ya. Koldin esa kriminalistik identifikatsiyani jinoyat ishi bo'yicha obyektiv haqiqatni aniqlashning universal usuli sifatida baholab, mazkur nazariyaning rivojlanishi fan-texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [4]. Ushbu ilmiy yondashuvlar genetik identifikatsiyaning kriminalistik identifikatsiya nazariyasining mantiqiy va tabiiy davomi sifatida shakllanganligini ko'rsatadi.

Kriminalistik identifikatsiya usullarining tarixi insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular quyidagi bosqichlarda rivojlangan: tanani tamg'alash; antropometriya; politsiya fotografiyasi; daktiloskopiya; serologiya; genotiposkopiya; avtomatlashtirilgan biometrik identifikatsiya tizimlari [5; 47-b.].

Mazkur bosqichlarning har biri o'z davri uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, genotiposkopiyaning paydo bo'lishi kriminalistik identifikatsiya sohasida haqiqiy ilmiy-texnologik inqilobni yuzaga keltirdi.

XX asrning ikkinchi yarmida molekulyar biologiya va genetika sohasida amalga oshirilgan fundamental tadqiqotlar inson DNKsining individual xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Genetik identifikatsiyaning shakllanishi ingliz genetigi Alek Jeffris (Jeffreys A.J.) nomi bilan bog'liq. U 1984-yilda inson DNKsida yuqori darajada polimorfizmga ega bo'lgan nuqtalarni aniqlab, "DNA fingerprinting" deb nomlangan usulni taklif qildi. Mazkur kashfiyot shaxsni uning biologik izlari orqali yuqori darajada ishonchli identifikatsiya qilish imkoniyatini yaratib, kriminalistika tarixida yangi bosqichni boshlab berdi [6; 314-b.]. Natijada shaxsning genetik xususiyatlaridan kriminalistik maqsadlarda foydalanish imkoni paydo bo'ldi.

Genotiposkopiya yoki DNK-identifikatsiya inson organizmiga tegishli biologik obyektlarda saqlanuvchi genetik ma'lumotlar asosida shaxsni aniqlashga qaratilgan ilmiy asoslangan kriminalistik usul hisoblanadi. Mazkur usul inson genomining individual xususiyatlarini tadqiq qilishga asoslangan bo'lib, uning yuqori darajadagi ishonchliligi va aniqligi bilan ajralib turadi.